

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK HIKOYALARIDA MILLIY TARIXNI YARATISH MUAMMOLARI

M.Hamrayeva

f.f.n., dots. TermizDU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7389808>

Annotatsiya. Ушбу мақола ўзбек адабиётининг забардаст вакиллари Асқад Мухтор, Урфон Отажон, Хуришид Дўстмуҳаммадларнинг "Инсонга қуллуқ қиладурмен", "Хумоюн қабул", "Умид гули" каби ҳикоялари билан Амир Темур давридаги воқеаларни тўғри ҳамда ҳолис ёритиши асносида Темурийлар сулоласига бағишлаб яратилган асарлар орасида бадиий жиҳатдан анча бақувват ва тарих тўғри ҳамда ҳаққоний акс эттирилган асарлар сирасига кириши, шу билан биргаликда, Хуришид Дўстмуҳаммаднинг эса тарихий шахслар мавзусида самарали ижод қилиб келаётганлиги, ижод маҳсули сифатида қатор асарлар ёзганлиги, бу ҳикояда эса маърифатпарвар адиб, Абдурауф Фитрат тимсоли орқали қатагон даврининг даҳшатлари, ўша даврда маърифат аҳлига бўлган муносабат, ҳамда шу билан биргаликда, ҳикоя давомида мустақиллик даврида ўтаётган ёруғ кунларнинг қадрига етиши билан боғлиқ ҳақиқатни акс эттириши каби масалалар таҳлилга тортилгани билан аҳамиятлидир.

Калит сўзлар: тарихий шахс сиймоси, тарихий ҳақиқат, назокат билан чизилган, маърифатпарварлик гояси, Амир Темур, Фитрат, Чўлпон, "Менинг кечам", "Менинг кундузим".

ПРОБЛЕМЫ СОЗДАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИСТОРИИ В УЗБЕКСКИХ ИСТОРИЯХ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. Данная статья относится к числу художественно созданных произведений, посвященных династии Тимуридов при правильном и беспристрастном освещении событий времен Амира Темура такими рассказами, как «Я служу людям», «Хумаюн қабул», «Умид гули» великие представители узбекской литературы Асқад Мухтар, Урфон Отаджон, Хуришид Достмухаммад. Он очень энергичен и входит в серию произведений точно и правдиво отражающих историю, вместе с тем, что Хуришид Достмухаммад эффективно творит на тему исторических личностей, он написал ряд произведений как продукт своего творчества, и в этой истории, через образ просвещенного писателя Абдурауфа Фитрата, ужасы периода репрессий, те. Важно, что такие вопросы, как отношение к в ходе рассказа анализируются просвещенные люди периода, а также отражение правды, связанной с оценкой светлых дней периода независимости.

Ключевые слова: фигура исторической личности, историческая правда, тонко нарисованная, идея просвещения, Амир Темур, Фитрат, Чолпон, «Моя ночь», «Мой день».

PROBLEMS OF CREATING NATIONAL HISTORY IN UZBEK STORIES OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Abstract. This article is among the artistic works created by the great representatives of Uzbek literature, Asqad Mukhtar, Urfon Otajon, Khurshid Dostmuhammad, dedicated to the Timurid dynasty, with stories such as "I serve people", "Humayun qabul", "Umid guli" and the events of Amir Temur's time. entering into the series of works where history is accurately and truthfully reflected, together with the fact that Khurshid Dostmuhammad has been creating works on the subject of historical figures, he has written a number of works as a product of his creation, and in this story, the horrors of the repression era through the image of the enlightened writer, Abdurauf Fitrat, in that period It is significant that issues such as the attitude towards the enlightened people, as well as the reflection of the truth related to the appreciation of the bright days during the period of independence, are analyzed during the story.

Key words: the figure of a historical person, historical truth, delicately drawn, the idea of enlightenment, Amir Temur, Fitrat, Cholpon, "My night", "My day".

Tarixiy shaxs siymosini haqqoniy tarzda aks ettirish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Yozuvchi, birinchidan, tarixiy haqiqatni yoritish uchun uzoq o'tmish voqeligini o'sha davr manbalari asosida o'rganishga harakat qiladi. Ikkinchidan, o'sha zamonda yashagan tarixchi olimu fuzalolar tomonidan bitilgan talay asarlarga murojaat qiladi. Taniqli ingliz olimasi va adibasi Hilda Hukhemning «Etti iqlim sultoni» nomli hujjatli-tarixiy qissasi ana shunday jiddiy asarlar sirasiga kiradi. Muallif Amir Temur davrini to'g'ri va aniq aks ettirish uchun tarixiy manbalarga diqqat qaratgani asarni tahlil qilish jarayonida yaqqol seziladi. Hilda Hukhem tarixiy voqealar bayonini berish bilan birga ba'zi o'rinlarda hamon bahs-munozara bo'lib kelayotgan Temurning bolaligi bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib, shunday yozadi: «Temur o'smirlik chog'idanoq cho'lda yashovchi ko'chmanchilar an'analariga ixlos bilan qaragan, zero, «u kabi aslzodalar hamisha cho'ldagi hayotni shaharda yashashdan afzal ko'rishgan». U yilqini miridan-sirigacha bilar, bir qarashdayoq zotli tulporni zoti past otdan farqlay olardi. U yaxshi suvori edi, kamondan uzgan o'qi doim nishonga bexato tegardi. Movarounnahr hukmdorlarining o'zaro to'qnashuvlarida ishtirok etar ekan, u tezda harbu zarb san'ati bilan ham tanishib oldi. Ko'p o'tmay, atrofiga yaxshi qurollangan bir to'da chobukdast yigitlarni to'plab, qo'shni tumanlarda yag'mo bilan shug'ullandi, savdo karvonlariga hujum qila boshladi. Qo'lga tushirgan o'ljani to'dasidagi yigitlarga saxiylik bilan bo'lib berardi. Shu bois, Temur vodiya, ayniqsa, ko'chmanchi yigitlar orasida mashhur bo'lib ketdi. Garchi, keyinchalik, uning tug'ilishi, bolalik yillari haqida turli uydirma va afsonalar ko'p tarqalgan bo'lsa-da, Temurning 1360 yilga qadar faoliyati to'g'risida hech qanday yozma ma'lumot yo'q. Agar Temur yag'mogarchilikdan tashqari biror sohada o'zini ko'rsatganida edi, rasmiy tarixchilar bu to'g'rida, albatta, yozgan bo'lishardi».

Voqealar rivoji jarayonida Temurning Tug'luq Temur xizmatiga kirishi, mo'g'ul xoniga bosh egishni istamay, ular bilan aloqani uzishi hamda Marv yaqinida 62 kun asirlikda o'tkazgan kunlari haqida fikr yuritilib, Temurning hayot yo'lidagi muhim sanalarga nazar tashlanadi. Muallif Amir Temur bilan Amir Husayn o'rtasida nizo chiqishga sabab bo'lgan sarbadorlar harakati haqida ham to'xtalib o'tadi. Harakatning asosiy mohiyati va ikki amirning o'zaro munosabatlarini ishonarli tarzda tasvirlashga intiladi. U yozadi: «Masjid yonidagi maydonda umumshahar majlisi chaqirilib, turli tabaqalarga mansub bo'lgan o'n mingtacha odam yig'ildi. Majlisda Mavlonozoda shahar hokimlarini qo'rqqoqlik va ochko'zlikda ayblab, boshiga og'ir kun kelganida xalqni o'z holiga tashlab, qochib ketganlarini aytdi.

Qanchalar katta tovon to'lamaylik, - dedi u, - baribir Samarqandni qutqarib qola olmaymiz. Shaharni omon saqlashning yolg'iz yo'li o'z hayotimizni himoya qilib, jangga o'tlanmoqdir».

Shundan so'ng u aslzodalarga murojaat qilib: «Qay biringiz dini islom himoyasiga boshchilik qilishingiz mumkin?» - deb so'radi. Biroq ular «churq» etib og'iz ochishmadi. Shundan so'ng u xalqqa murojaat qilib, shahar mudofaasini o'zi tashkil etajagini aytib, bu ishda uni qo'llab-quvvatlashlari lozimligini iltimos qildi. Jetilardan Samarqandni «hukmdorlarsiz» xalqning o'zi mudofaa qilishi ana shu tarzda boshlanadi». Muallif ikki amirning sarbadorlarga munosabati haqida aniq fikr yuritishga harakat qilsa-da, nechundir taxminiy mulohazalarini bildirish bilan kifoyalani, Amir Temur hamda Amir Husayn xarakterlariga xos sifatlarni sanab o'tgan, xolos. Amir Temurning davlatni boshqarishda qonun-qoidalarga rioya qilgani, Chingizxon qonunlarini muqaddas deb bilishi ham qissada batafsil ko'rsatiladi.

Hilda Hukhem o'z asarida tarixchi Ibn Arabshohning fikrlarini keltirish bilan uning Amir Temurni tan olganligini ta'kidlamochi bo'ladi. Sohibqiron harbiy salohiyatining yuksakligiga ishora qilib, Ibn Arabshoh tilidan shunday deydi: «Kaminaning ustoz... damashqlik Abu Abdulloh Ibn Muhammad Buxoriy (ilohim joyi jannatda bo'lg'ay va uning ruhi dini islomga quvvat, mo'min-musulmonlarga qudrat bag'ishlag'ay) shunday demishlar: Amir Temur hijriy 771 yilda o'shal badbaxt sulton Husaynni qatl ettirmish va shu soniyadan e'tiboran butun hokimiyatni o'z qo'lga olmish»

Muallif Ibn Arabshoh ham Sohibqironning jangu jadal bobidagi tadbirkorligiga tan berganini izohlab, voqealar rivoji jarayonida muarrix so'zlarini keltirishni joiz deb topadi: «...Temurning aql-zakovati shu qadar teran ediki, - deya yozadi Arabshoh, - u tuzgan rejalar ummonining na tubiga, na sirtining cho'qqisiga etib bo'lardi. To'g'ri yo'l bilan ham, egri yo'l bilan ham uning niyatlari tagiga etish amrimahol edi. U o'zining butun saltanati bo'ylab darakchilar jo'natar, o'zga saltanatlarga esa ayg'oqchilar yuborardi. Bu ayg'oqchilar orasida o'zining ittifoqchisi bo'lgan Otilmish kabi amirlar yoki o'zining bosh vaziri Ma'sud Kohijoniy kabi alloma darvishlar, turli hunarmandlar, tujjorlar, folbinlar, tabiblar, azayimxonlar, daydilar, dengizchilar, xonandalar, mayx'rlar, qo'shmachi kampirlar, mag'ribdan mashriqqacha kezib yuradigan sayyohlar bor edi. Ular Sohibqironga eng uzoq sarhadlardan yangiliklar olib kelishar, u erdagi g'aroyib hodisalar, og'irlik o'lchovi, narx-navo haqida hikoya qilib, yo'llar, shahar va qishloqlar, savdo bekatlarining tarxini chizib berishardi».

Muallif Amir Temur siymosini tasvirlashda ham Ibn Arabshoh yozib qoldirgan ta'rifni keltiradi: «Temur qadimgi amalekitlar yanglig' tik qomatli, baland bo'yi, peshonasi keng, boshi katta, metin tabiat bir odam edi. Uning yuzi oq-qizil bo'lib, ochiq havoda ko'p yursa-da, oftobda qoraymagandi. Uning a'zoyi badani pishiq-puxta, elkalari keng, barmoqlari uzun va ingichka, oyoqlari uzun bo'lib, qaddi-qomati kelishgan edi. U o'ng tomonga qarab oqsoqlanardi. Ko'zlari xuddi yonib turgan shamga o'xshasa-da, lekin qattiq yiltiramas edi. U o'limdan qo'rqmas, hatto umrining oxirida (69 yoshida) ham xotirasi tiniq, jismi pishiq-puxta, jasorati va metin tabiati bilan qudratli qoyani eslatardi. Bir qarashdayoq masalaning tub mohiyatini ilg'ab oladigan, kuzatuvchan, munozara qilish san'atini suv qilib ichib yuborgan. Temur hech qachon xom xayolga berilmas, orzulari ro'yobga chiqmasa, buni yashirib o'tirmas va tuzgan rejasini o'zgartirmas edi. U haq so'z bilan uydirma gap o'rtasidagi farqni eshitgani hamono aniq ajrata olardi, shuningdek, u o'z mug'ombirligi bilan samimiy maslahatgo'yni munofiq firibgardan bir qarashdayoq farq qila olardi. Agar u biron buyruq bergudek bo'lsa, yoki biron ishni bajarish haqida ishora qilsa, bu niyati yo buyrug'ini hech qachon o'zgartirmas edi. Ana shuning uchun ham u Etti iqlimning Muzaffar sultoni, sohibqiron, deb nom olgan edi».

Amir Temurning islom dini ulamolari, darvishlar, avliyolarga hurmati baland bo'lganligini va ularni qadrlaganligini alohida lavhalarda isbotlaydi. Muallif Hofiz Sheroziy bilan Amir Temur o'rtasidagi rivoyatlarga aylangan muloqotni aynan keltirgan: «Aytishlariga qaraganda, Temur shoirni o'z huzuriga chaqirtiribdi-da, g'azab bilan debdi: «Men dorussaltana Samarqand bilan Buxoroni obod qilmoq uchun Er kurrasining talaygina qismini fath qildim, minglab shaharlarni va o'lkalarni vayronaga aylantirdim, sen nobakor bo'lsang, o'shal sherozlik jononning bittagina xoliga bu shaharlarni baxsh etadigan bo'ldingmi?»

Ayni uchrashuv o'zbek adibi Urfon Otajonning «Humoyun qabul» asarida nazokat bilan chizilgan:

«- Siz madh etmish Samarqand mevalari Sheroz mevalari kabi bag'oyat totlidir, - deya so'z boshladi Amir Temur Hofizga qarab. - Mavlono, men ikki kun shaharni sayr qildim, ammo g'azallaringizda vasf qilinmish Sherozni ko'rmadim.

- Amirim! Ul g'azal yozilgan davrda Sheroz dilkusho erdi, bunga ko'p yillar bo'ldi, - ma'yus javob berdi Hofiz»

Suhbat asnosida Amir Temur Hofiz Sheroziy g'azallaridagi ayrim kufr o'rinlarga urg'u beradi, buyuk shoir ularni tasavvufiy mazmunda ekanini aytib, o'z talqinini bayon qiladi. Nihoyat, so'z Hofizning mashhur g'azalidagi Samarqand Buxoroga ko'chadi:

- Mavlono, - Hofizga murojaat qildi sohibqiron. – Sizning bul g'azalda yodga olganingiz Samarqand Buxoroga taklif qilurman. U erlarning go'zal bog'lari, oliy imoratlarini o'z ko'zingiz ila ko'rursiz...

- Tashakkur, amirim! Qarib qoldim, xastaholmen. Uzoq safarga chiqmog'im mushkuldur. Yigitlik chog'larimda Buxoro va Samarqandni, Shoshni ko'rmoq orzuim bor edi. Afsus, borolmadim. Endi esa qarilik oyoqlarimga kishan bo'lmish.

- Pirim Zayniddin Toyobodiy Sizni Shoh Shujo' ta'qibidan qutqarmishlar. Ammo ash'oringiz maftunkor va shirindur, mavlono. Na iloj ixtiyor Sizda, - dedi Amir Temur».

Hofiz Sheroziy Amir Temurning ranjiganini sezadi va o'zi kitobat qilgan Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sini sulton sohibqironga sovg'a qiladi. Ko'rinadiki, ingliz adibasi keltirgan qahr va g'azab ushbu tasvirda yo'q. Amir Temur g'oyat lutfkorlik bilan Hofizga uning yanglishganini eslatadi.

Ushbu tasvir Muhammad Alining «Ulug' saltanat» romanida epizodda muallif ingliz adibasi Hilda Hukhemning «Etti iqlim sultoni» hujjatli ma'rifiy qissasida uchraganiday, Amir Temur va Hofiz Sheroziy uchrashuvini yoritgan. Aytish kerakki, bu tarixiy voqeani o'zbek adiblari ichida Urfon Otajonchalik («Humoyun qabul» hikoyasi) hech kim nazokat bilan tasvirlamagan. Muhammad Ali epizodida esa ijod ahlining beg'ubor qalbi, saxovatpeshaligi ro'y-rost tasvirlangan. Demak, shunday xulosaga kelish mumkinki, ingliz adibasida bu voqeani tasvirlashda g'azab ohanglari sezilsa, Urfon Otajonda o'zgacha nazokat bilan aks ettirilgan bo'lsa, muallifda esa ro'y-rost, ochiq yoritilgan: «...Ko'nglidan, «O'ksinma, ey Hofiz, hatto podshohlar ham baytingni aytib yuradilar...» qabilida fikr o'tdi... – O'rnidan turib ta'zim qildi-da, yuvilaverib rangi ketib qolgan qirrasini echib, yalang'och qoq ko'kragini ko'rsatdi va dedi: - Amir sohibqiron! Rost dedingiz! Saxovatda Hotami Toy ham ortda qolib ketganligi rost. Axir Hotami Toy yalang'och yurmagan...Kaminani ko'ringiz! Qo'limning ochiqligidan, saxiyligidan shu qadar kambag'al bo'lib qoldimki, hatto kiygani yaktagim ham yo'q!...»

O'zbek adabiyotida Sohibqiron obrazi yaratilgan asarlardan biri sifatida nomi tilga olingan «Insonga qulluq qiladurmen» (Asqad Muxtor) hikoyasining kompozitsiyasi jahongir Amir Temur va oddiy nag'masoz Ayri Qo'buz o'rtasidagi mubohasaga asoslanadi. Albatta, bu kichkinagina asarda Sohibqiron xarakterining barcha qirralari yorqin va tiniq ochilishi qiyin. Ammo yozuvchi Temur xarakterini katta mahorat bilan yaratadi. Yozuvchi talqinidagi Temur siymosi tarixiy haqiqatga nihoyatda yaqin. U Sohibqiron hayotining har bir lahzalarini kitobxon ko'z o'ngida namoyon etish uchun shunday ramziy belgilar topadiki, ular timsolida, ya'ni Ayri Qo'buz navolaridan ramziy belgilar orqali o'z qahramonlari timsolini aks ettiradi. Belgilar orqali qahramon dunyosida paydo bo'ladigan obraz mantig'ini majoziy ravishda tasvirlab qo'yadi.

Sohibqiron bilan Ayri Qo'buz o'rtasidagi mubohasadan ko'zda tutilgan maqsad shuki, bunda Amir Temurning tarix oldidagi xizmatlari, markazlashgan davlat tuzganligi, go'dakligi haqidagi afsonalarga bo'lgan munosabat yarq etib ko'zga tashlanadi. Tahlil uchun suhbatdosh Ayri Qo'buzning quyidagi dono fikrlariga e'tibor qaratdik: «Baribir, el, Amir Temur Olloh taoloning barguzidasidur, derlar. Zero, Zuhal ila Mushtariy burjida tavallud topibsenkim, Ollohi muborak eru ko'kni shul soatda yaratmishdir. Nujumotning bu holati har sakkiz yuz yillikda bir kelurkim, alarning chehrasida nuri ilohiy zuhur o'lg'ay. Avvalo Iskandari Zulqarnayn, andin so'ngra, Muhammad Alayhissalomu vasallam va dag'i sen, qiblagoh».

Oddiy nag'masoz bilan Sohibqiron suhbatini orqali yozuvchi hayot falsafasini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Ayri Qo'buz olamda barcha narsa omuxta, deydi. Temur qarashlarida burilish yasagan tungi navolar ham olam sehriga omuxta deyiladi. Temurni bir vaqtlar shafqatsiz, toshyurak, jallod, qonxo'r deb jar solganlarga javob tariqasida yozuvchi quyida ishonarli detaldan mohirona foydalangan: «Mana, sen jang oldidan Qur'oni masjiddan varaq ochib, oyat o'qursen, - deb davom etdi Ayri Qo'buz, - mening hayotim seni taammulga solur. Qariyalar so'zidin bu holga tushding. Inchunin, bag'ritosh emassen. Menga shu kerak. Bir umr joni huzur halovat ko'rmay, jangu jadal, qonli qironlardan diydayu bag'ri tosh qotgan bu insonning ko'nglini sal bo'lsa ham yumshatish niyat edi bu devonag'a. Jahongirlarga bosh egmadim, insonga qulluq qiladurmen, - dedi shoir».

Yozuvchi Sohibqiron xarakteriga bermiqchi bo'lgan tavsifni Ayri Qo'buz o'z tili bilan ifoda qiladi. Ayri Qo'buz hatto o'z o'limini Temurni bir gunohdan asrab qoldi, deydi. Bu bilan Amir Temur shaxsining buyukligini kelajak avlodga ko'rsatmoqchi bo'ladi. Baxshi ichki dunyosi bilan hikoyadagi Sohibqiron xakteri o'rtasidagi tafovut unchalik katta emas. Ayri

Qo'buzzning so'nggi so'zlaridan «Ko'p jahongirlarni ko'rdim, ammo men ularga bo'ysunmayman. Qayga borsam, o'zimdan iloji boricha yaxshi nom qoldirishga harakat qilaman. Jahongirga emas, insonga qulluq qiladurmen» degan ma'no anglashiladi. Voqealar rivoji davomida Ayri Qo'buzz xarakterida qo'rqinch, hayrat, shaddodlik xislatlari namoyon bo'ladi. Ayri Qo'buzzning so'nggi so'zlarini eslagan Sohirqiron undan xayolan nimani yashirib ketding, deb so'raydi. Ziyrak kitobxon Ayri Qo'buzz istiqbolda uni ajal kutayotganligini karomat qila olmaganini sezadi. Bu bilan yozuvchi oxir-oqibat ulug'lar, daholar joyi ham bir siqim tuproq bo'lajagini, shu bois umrni bekor o'tkazmay, o'zidan biron iz qoldirishga chaqirmoqchi bo'ladi.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Umid guli" hikoyasida Abdurauf Fitratning obrazi yaratilgan. Hikoyada yozuvchi tarixiy shaxs obrazini mahorat bilan aks ettirish asnosida o'sha davr voqealarini ham to'g'ri va haqqoniy aks ettirgan. Taniqli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad bilan Respublika bo'yicha tashkil etilgan "Nasrimiz izdoshlari" kanali ma'muriyati, Termiz davlat universiteti bilan hamkorlikda o'tkazilgan onlayn ijodiy muloqotda men yozuvchiga "Umid guli" hikoyasi yuzasidan ayrim savollar bilan murojaat qilganman. Quyida o'sha suhbatdan ayrim o'rinlarni keltirishni joiz deb bildim: "...Umid guli" hikoyasining yaratilishiga nima sabab bo'lgan? Tarixiy shaxs Abdurauf Fitrat timsolini tasvirlashda nima nazarda tutilgan? Bevosita hikoyaning so'nggida "Inqilob" jaridasiga "Mening kecham" she'ri va Botuning "Mening kunduzim" she'rini chop etish bilan bog'liq xat yozish bilan tugallangan. Bu holat kelgusi yorug' kunlarimizga ishorami? She'r nomlari mening nazarimda mana shunday xulosaga kelishga sabab bo'ladi?

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad: -Taniqli adabiyotshunos Hamidulla Boltaboev Abdurauf Fitratning besh jildligini bosmaga tayyorlagan. Bir dunyo ish qilgan. Shu besh jildli asarlarini o'qidim. Savol tug'iladi: nima sababdan shu besh jild nega ommalashmadi? Fitrat, Cho'lpon, Behbudiy, Qodiriy, Hamza, Usmon Nosir deymiz, lekin ular ommalashmaydi. Nima sababdan odamlar Abdurauf Fitrat mana shunday odam ekan, bunday bo'lgan ekan deb aytmaydi. Men kuyib ketaman. Bir olim umrini sarflab besh jildlik kitob chiqaribdi, oltinga topilmaydigan gaplar bor u erda. Fitratning asarlarini o'qisangiz butun tasavvurlaringizni o'zgartirib yuboradi. Nafaqat XX asr boshlanishi, XXI asr boshlanishidagi voqealarga ham munosabatingizni o'zgartirib yuboradi. Shuni o'qib turib va ta'sirlanib yurib, Moskvada bo'lgan epizod (lavha desa ham bo'ladi) meni hikoya qilgin degandek bo'lib qoldi. O'sha epizodning o'zi meni hikoya yozishga majbur qildi. Maqsad Abdurauf Fitrat singari insonlarning badiiy obrazini yaratish. Misol uchun, Behbudiy haqida "Yoshlik" jurnalida bir qissa chiqdi. Xursand bo'ldim. Chunki badiiy obraz orqali o'sha ulug' insonni, ulug' zotni keng ommaga yaxshiroq, chuqurroq va ta'sirliroq tanishtiramiz.

Rahmatli Tohir Malik Abdulla Avloniy haqida qissa yozgan. Yana va yana muammo kitobxonlarimizning saviyasiga, qiziqish doirasiga kelib taqaladi. Bir so'z bilan aytganda, Hamidulla Boltaboev tayyorlagan kitoblardan, yana qo'shimcha ma'lumotlarni arxiv materiallaridan o'rganib "Umid guli"ni yozdim. Fitratning bag'rikengligini, ulug'ligini qarangki, jurnalga xat yozib o'zi va Botuning she'rini yonma-yon bosinglar deb iltimos qiladi. Undan xulosa chiqarib olish sizga, menga, boshqa o'quvchilarga havola. Mening yozganlarimda, e'tibor bergan bo'lsangiz, tugal xulosa bo'lmaydi. Tugal xulosa o'quvchi ixtiyoriga qoldiriladi."

"Umid guli" hikoyasini o'qir ekansiz, quyidagi epizod e'tiborni tortadi: "...O'ylab ko'risla, "Munozara" nafaqat Buxoro millatiga, mana shu maskovlik avom omma uchun ham ahamiyatli. O'qisalar, onglasalar, ko'zlari ochilsa... Axir hayotni yaxshilayman degan jamiyat borki yangi va qadimni qiyoslay bilmog'i darkor. Zero, qadim va jadid o'rtasida hamisha ixtilof mavjuddir, shul ixtilof ildizlarini topmoq va turmushda alarga barham berish choralarini qo'llamoq uchun ham har bir zamon o'z ma'rifatli zotlarini etishtirgay. Shul niyatni dilga tugmoq uchun esa munozara darkor. Dildan boshlangan munozara pirovardida dilga va turmushqa obodlik keltirgay..."

Ushbu parcha orqali yozuvchi bugungi kunlarimiz uchun ahamiyatli bo'lgan ma'rifatparvarlik g'oyasini ilgari suradi. Ma'rifatli zotlar yurt taraqqiyotida muhim rol o'ynashi hamda yosh avlod ongiga ularning ibratli ishlarini singdirish va shu muqaddas yurtning munosib farzandi bo'lishdek eng ulug' tuyg'ular tasviri bor. Kelgusi yorug' kunlar shunga ishoraday, tuyuladi nazarimda. Bu o'rinda yozuvchi Fitratning ulug' maqsadlar yo'lida yashayotganini uqtirganday go'yo. Uning siymosida ulug' va mo'tabar tarixiy shaxs siymosini ko'rganday bo'lasiz. Ayniqsa, hikoyada Fitrat bilan Botuning suhbatini tasvirlangan o'rinlar kitobxonni larzaga soladi. Ayniqsa, bu o'rinlarda Fitratning yuksak ma'naviyati va Botuning xarakteri bo'rtib ko'rinadi.

Yozuvchi Fitrat obrazini yoritish asnosida ushbu lavhada 37 yil qatag'onining dahshatli qilichi ne-ne xalqimizning asl farzandlarini chetlab o'tmaganini, kichik bir detal bilan katta aybni fidoiylarimiz bo'yniga qo'yishganini aks ettirgan. Ayniqsa, Maskovdagi hayot Fitrat uchun umrining kechasi ya'ni qorong'u kuni ekanligi yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan. "...Mehmon yigit varaqlardan birini olib undagi yozuvni o'qishga tutindi. Misralar g'oyatda mayda arabiy harfda bitilgan, boz ustiga tahririy tuzatishlar tufayli ravon o'qishi qiyinroq ko'chdi. Ustoz yoddan o'qib, yosh mehmonning mushkulini engillashtirdi:

Kech bo'ldi, tinib bitdi tovushlar,
So'ndi butun uylarda chiroqlar,
tebranmadi er uzra oyoqlar,
zulmat yana har yon oqa qoldi.

Mehmon yigit dam mezbon shoirning qiroatiga, dam qo'lidagi qog'ozga ko'z qirini tashlar, bu tarzda boshini sarak-sarak tebratishi o'qiyotganiga – ko'zi, tinglayotganiga– qulog'i ishonmayotgan odamga o'xshab ketayotgandi.

She'rxonlik tugadiyu oraga og'ir jimlik cho'kdi. Ustoz yosh shogirdidan bir imdod kutar, shogird esa sukunatni qay so'z ila buzishni bilmay qiynalar, ehtimol nima jin urib shu damda bul xonaga kirib kelgani uchun ich-ichidan o'zini koyiyotgandi.

– Sarlavhasi?.. – savol qotdi u boshqa arzirli so'z topolmay. Dediyo, bergan savoliga kutilajak javob noqulay ahvolini battar og'irlashtirishini zum o'tmay kechikib angladi.

– “Mening kecham”.

– Taxminim to'g'ri chiqdi...

– Qanday taxmin? Mos emasmu?

Mehmon yigit bu qisqa savol-javob asnosida o'zini birmuncha o'nglab oldi chog'i, keyingi so'zlarida dadillashdi.

– She'rning nomi sifatida mos kelar, biroq she'rning o'zi...

– Xo'sh-xo'sh, aytaversinlar.

– UZR, ustoz. Aytmoqchi bo'lganim... bunchalar tushkun? Bunchalar qora?

– Tashqari qora-da, – darhol izoh berdi ustoz.

– Tashqari – kunduz, ustoz.

– Kunduz? Zimistonga burkangan kunduz. Ana, boqing derazadan, ko'rinar mi ko'zingizga siz aytg'an kunduz?

“O'rtoq professor” yosh vatandoshiga sinovchan razm soldi. Mehmonning avzoyida o'zgarish sezmad. Boyagina – u kelmasidan burun yoddan o'qigan misralarni ovoz chiqarib takrorladi:

–Havo buzuq!..

– Ko'k yuzida qop-qora

Ko'mir kabi...

Mehmon yigit bexosdan noxush narsani bosib olgan odamdek siltanib tushdi. Ovozidagi titroq uning muvozanatdan chiqqanini yanayam bo'rttirib tasdiqladi.

– Ochiq aytsam, siz e'timod ila eslaganingiz bu misralar g'oyatda dag'al, ular mening ko'nglimga og'ir botadir.

Ustoz shogirdan bu qadar bepisandlarcha dangallikni kutmagandi.”

Hikoyada tasvirlangan ushbu lavhada yozuvchi Fitratning she'r nomini yosh mehmoniga e'lon qilish orqali, xalqimizning o'sha davrdagi og'ir va ayanchli hayot tarziga ishora qilgan. Ayniqsa, ustoz-shogird munosabatlarini o'rganishda ham bu qadar tarbiyasizlikni yozuvchi oqlamaganini, ammo Fitratning ustoz sifatida bag'rikeng va ulug' inson ekanligini gavdalantira olgan. Shu bilan birgalikda, yozuvchi o'sha davrda xalqimizning asl va fidoiy farzandlarini asrash, ularni 37 yil qatag'onidan himoyalash maqsadida Abdurauf Fitratni Moskvaga jo'natib yuborish epizodini mahorat bilan yoritib beradi. O'sha o'rinda Fitratning ichki dunyosida kechayotgan o'zgarishlarni gavdalantirish uchun ruhiy tahlil san'atidan foydalanganini ko'rish mumkin:

“ – Ustoz, – dedi Fayzullaxo'ja ittifoqo anjumanlardan birida uni chetga chorlab, – siz zudlik ila Maskovga jo'naysiz!

– Maskovga? Zudlik bilan?!

– Jonli sharq tillari institutida mudarrislik qila turasiz, shunga kelishdik. U tamom tushuniksiz hayrat ila Fayzullaxo'jaga razm soldi, biroq jumhuriyat rahbari goh boshini solintirib oyog'i ostiga, goh atrofga qarayotgan bo'lganidan uning tushunuksiz ahvolda o'ng'aysizlanayotganini payqadi, faqat favqulodda xabar sohibining ovozdagi xotirjamlik, bosiqlik uning uchun yupanch vazifasini o'tadi. Shunday esa-da, tovushini pasaytirib savol qotdi:

– Tinchlikmi o'zi?

– Tinchlik, ustoz, lekin notinchlik isi kelmoqda... Qarorning orti qorong'ilik. Fayzullaxo'janing hurkitilgan jayronning ignalaridek tepaga qaratib taralgan sochlari bir silkindiyo o'zi nari ketaturib, to'xtadi, ortiga yarim o'girilganicha ustozning ko'ngli uchun bo'lsa kerak, tovushiga atayin o'ktam tus berdi:

– Vaziyat oydinlashguniga qadar o'sha tomonlarda bo'la turing, xabarlashamiz.

Xabarlashish qayda! Ozmuncha aytar so'zi, ravshanlik kiritishi zarur savollari paydarpaytug'ilyaptimi bu erda! Lekin ularni kimga kimga yorilib-yozilib bayon etadi?! “Qarorning orti qorong'ilik...” O'tgan yil fasli bahor kunlarida Maskovda qabul qilingan “Buxoro masalasi” qaroridan so'ng jumhuriyat osmonida qora ko'lankalar quyuqlasha boshladi. Shu yilning yozida esa Markazqo'm kotibi Rudzutakning Buxoroga maxsus tashrifidan ko'zlangan maqsad o'sha mal'un qaror bandlarini amalga oshirish ekanligi sir bo'lmay qoldi. Fayzulla aytmoqchi, Buxoroni notinchlik isi tutdi.”

Hikoyada yozuvchi Fitrat xayollari bilan xalqimizning asl farzandi Cho'lponga bo'lgan munosabatni ham yodga oladi:

“–Havo buzuq!..

– Ko'k yuzida qop-qora

Ko'mir kabi qator-qator bulutlar...

Ko'mir kabi bulutlari – yot ellar...

Qaerdasan, Abdulhamid-id-d?... Xuddi Maskovga kelgandek, shu kungi havoning avzoyini o'z ko'zlari bilan kuzatgandek yozgan-a! Dilbar shoir, tengsiz shoir!.. Shu singari haroratli sifatlar ila Fayzullaxo'jaga tavsiya qilgandi uni, Fayzulla baraka topsin, Abdulhamidga “Buxoro axbori” gaziti muharrirligi vazifasini topshirdi. Abdulhamid astoydil ishladi, ter to'kib ishladi, shu tarzda ishonchni oqladi va nadomatlar bo'lg'aykim uning ham javobini berishdi–ketkazishdi. Cho'lponddek shoirning xizmatidan voz kechishdi!.. Vaholanki – professor tashqariga qaradi – vaholanki, hali qosh qorayishiga birmuncha erta, erta ekanligiga qaramay kunduzdan ko'ra ko'proq shom qorong'isiga o'xshab ketayotgan kunduz zimistonida hamon savashda davom etayotgan qor-yomg'irni ko'z ilg'amay qolgandi..”

Ushbu lavha bilan yozuvchi Fitratning Cho'lponga bo'lgan yuksak hurmatini hamda fidoiy farzandlarning ibratli hayot tarzi bo'g'ib qo'yilganini, ularga millatchi degan tamg'a bosilganini, hatto yashayotgan kunduzlari zimistonga o'xshashini tasvirlaydi. Hikoya so'nggida ham Fitratning “Inqilob” jaridasiga yozgan xatining berilishi ham yozuvchi suhbat jarayonida

bildirgan fikr mulohazalarga asoslanadigan bo'lsak, kelgusida yorug' kunlar kelishiga umid va ishonch bor degan tugal xulosaga kelish mumkin." "Pirovardida ustoz ikki enlik maktub yozib shogirdining qo'liga tutqazdi: "Inqilob" jaridasig'a. Ushbu ikki yangi she'r-kaminaning qalamiga mansub "Mening kecham" hamda yosh, navqiron shoirimiz mirza Botu bitgan "Mening kunduzim" she'rini nazmiy mubohasa sifatida bir sahifada chop etsangizlar. Kamoli hurmat ila Abdurauf Fitrat. 1923 yil 14 yktabr. Maskov".

Ushbu epizodda shu bilan birga Fitrat xarakteridagi eng yaxshi insoniy fazilatlar ko'zga tashlanadi va ma'lum bir epizodni tasvirlash jarayonida yozuvchi o'z maqsadiga erishgan degan fikrga bemalol kelish mumkin. Yozuvchilar Urfon Otajon, Asqad Muxtor, Xurshid Do'stmuhammادلarning hukoyalari tarixiy shaxs obrazini yoritish asnosida, tarixiy voqealarni to'g'ri va haqqoniy aks ettirganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Amir Temur. «Temur tuzuklari» (forschadan Alixonto'ra Sog'unliy va Habibullo Karomatov tarjimasi). - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – 144 b
2. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1995. – 184 b.
3. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin//Tafakkur. – Toshkent, 1996. - 1-son. - B.68-72.
4. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Tarixiy roman. Birinchi kitob. Jahongir Mirzo. – Toshkent: Sharq, 2003. – 334 b.
5. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Tarixiy roman. Ikkinchi kitob. Umarshayx Mirzo. – Toshkent: Sharq, 2006. – 336 b
6. Muxtor A. Insonga qulluq qiladurmen// Sharq yulduzi. – Toshkent, 1993. - 5-6-son. - B.97-111.
7. Urfon Otajon. Humoyun qabul. // Dilkusho bog'lar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. - B.44-57.
8. Hukhem Hilda. Etti iqlim sultoni: hujjatli-tarixiy qissa.- Toshkent: Adolat, 1999.-320 b.
9. X.Do'stmuhammad. Umid guli. Sharq yulduzi jurnali, 2017 yil, 2-son.
10. Murod G'ayrat Nek. Tarixiy jarayonning badiiy talqini.–Buxoro, 1994. – 103 b..
11. Abdurahim A. Men kim fotih Temur // Sharq yulduzi. - Toshkent, 1995. - 1-2-son.-B.7-64